



ENVIRONMENTAL PROBLEMS IN THE USE OF THE NATURE OF JIZZAKH REGION AND WAYS TO ELIMINATE THEM

Mirkomil Ravshanovich Gudalov

*head of the department, associate professor
Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan*

Muyassar Kholmatova

*Student
Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Jizzakh region, natural resources, environmental problems, nature conservation, protection, rational use.

Received: 31.05.24

Accepted: 02.06.24

Published: 04.06.24

Abstract: This article focuses on issues such as comprehensive study of the nature of Jizzakh region, scientific and practical solutions to environmental problems, and nature protection.

JIZZAX VILOYATI TABIATIDAN FOYDALANISHDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Mirkomil Ravshanovich G'o'dalov

*kafedra mudiri, dotsent
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jizzax, O'zbekiston*

Muyassar Xolmatova

*Talaba
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jizzax, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jizzax viloyati, tabiiy boyliklar, ekologik muammolar, tabiatni asrash, muhofaza qilish, oqilona foydalanish.

Annotatsiya: Mazkur maqolada, Jizzax viloyati tabiatini kompleks ravishda o'rGANISH, ekologik muammolarni ilmiy-amaliy jihatdan yechimlarini topish va tabiatni muhofaza qilish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ПРИРОДЫ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ

Миркомил Равшанович Гудалов

заведующий кафедрой, доцент

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

Муяссар Холматова

Студент

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Джизакская область, природные ресурсы, экологические проблемы, охрана природы, охрана, рациональное использование.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется таким вопросам, как комплексное изучение природы Джизакской области, научное и практическое решение экологических проблем, охрана природы.

KIRISH

Hozirgi kunda dunyo miqyosida ekologik muammolar ko‘lami kengayib bormoqda. Bu muammolar o‘z navbatida O‘zbekistonda ham yetarli darajada ortib bormoqda. Jumladan, Orol dengizining qurishi, u yerdagi havo harorati, aholining zarar ko‘rishi, bundan tashqari Aydar-Arnasoy ko‘llarining suv sathi pasayishi, buning hammasi ekologik muammolarni masshtabi kengaya boshlayotganidan dalolot beradi.

ASOSIY QISM

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng asta-sekin tabiatni muhofaza qilishga katta e’tibor qarata boshladi. O‘zbekiston hududlaridagi takrorlanmas tabiat yodgorliklarini asrab-avaylash va tabiiy boyliklardan ham oqilona foydalana boshladi. Har bitta tabiiy boyliklardan foydalaniladigan bo‘lsa albatta bir narsani bilish kerak, ya’ni tabiatga zarar keltirmay foydalanish, yaqin kelajak avlodga ham toza, musaffo tabiatni qoldirish va buning uchun hamma harakat qilish lozim.

Tabiatning tuzilishi bir butun o‘zaro aloqador hodisalarning murakkab kompleks bo‘lib, tabiatni asrash va muhofaza qilishga alohida e’tibor berish zarur. Mintaqada doirasidagi o‘ziga xos mahalliy ekologik muammolar alohida e’tibor berish lozim.

Jizzax viloyati O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, o‘zining tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy geografik o‘rniga ko‘ra ajralib turadi. Jizzax viloyatining iqtisodiy geografik o‘rnining muhim xususiyatlaridan biri, Toshkent va Farg‘ona iqtisodiy rayonlari bilan Samarqand iqtisodiy rayonlari oralig‘ida joylashgan. Bu yerlardan magistral yo‘llarining o‘tganligi ham Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishini yuqoriga olib chiqadi.

Jizzax viloyatining maydoni 21,2 km² ni tashkil qiladi. O‘zbekistonda viloyatlar ichida maydoni bo‘yicha 5 o‘rinda turadi. Viloyat maydoni Osiyo qit’asidagi ba’zi davlatlardan ham maydoni katta hisoblanadi.

Jizzax viloyatining relyef tuzilishi 4 ta balandlik mintaqalar ham uchraydi. Bular - cho‘l, adir, tog‘ va yaylov mintaqalaridir. Jizzax viloyatining balandlik mintaqalari asosan shimoli-g‘arbdan janubiy-sharq tomon almashinib boradi. Balandlik mintaqalari almashinib borgan sari iqlim ham shunga qarab o‘zgarib boradi. Viloyatning iqlimi keskin kontinental, ya’ni qishi sovuq, yozi issiq hisoblanadi. Lekin, viloyatning tog‘ oldi qismi bilan tekisliklarda iqlim keskin farq qiladi. Bunga sabab yog‘in miqdori va vegetatsiyaning davomiyligi hisoblanadi. Jizzax viloyatining tabiatni ham tog‘ va tekislikda yoki qishloq va shaharda keskin farq qiladi. Viloyat hududidan Sangzor va Zominsuv kabi daryolari oqib o‘tadi. Shu bilan birga ular birgalikda tog‘lardan oqib tushuvchi yuzga yaqin katta va kichik soylar ham mavjud.

Hozirgi kunda tabiatni muhofaza qilishga alohida e’tibor berilmoqda. Shuning uchun ham Jizzax viloyatining tog‘ va tog‘oldi qismi tekislik hududlariga qaraganda nisbatan musaffo hisoblanadi. Lekin tekislik qismida, ya’ni shaharda havo toza emas, 60-70 % ortiq avtomobillardan zaharli birikmalar chiqadi. Bu esa tabiatni ifloslanishida tayyor sharoit yaratib beryapti. Jizzax viloyatining geologik, geomorfologik, relyefi, tuprog‘i, o‘simpligi va hayvonot olamini muhofaza qilish bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Viloyatning o‘simplik qoplamiga keladigan bo‘lsak, ko‘proq tog‘ va tog‘ yonbag‘irlarida o‘simplik olamiga boydir. Ular ichida dorivorlari va madaniy o‘simpliklari ham mavjud. Jumladan jiyda, archa, bodom, na’matak, zira, zirk va rovoch kabi dorivor va madaniy o‘simpliklar areallarini kengroq ekanligini ko‘rish mumkin. Turkiston tizmasining yonbag‘irlari archazorlar bilan qoplangan bo‘lib, havoni toza va musaffo saqlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jizzax viloyatini tabiatini, hayvonlarini, o‘simpligini muhofaza qilish uchun Zomin milliy tabiat bog‘i tashkil etilgan. Zomin milliy bog‘ining takrorlanmaydigan ta’sirchan havosi bor, bu har qanday kasallikka davo bo‘lishi mumkin. U yerning havosi toza hamma joyi archa daraxti bilan qoplangan. Shuning uchun Jizzax viloyati muhofaza qiladigan hududlar soni va egallagan maydoniga ko‘ra respublikamizda oldingi o‘rnlarni egallaydi. Bundan tashqari Jizzax viloyatida tarixiy va tabiiy yodgorliklar ham mavjud. Bulardan Amir Temur g‘ori, Sayxonsoy qoyatosh rasmlari va Paymart otadagi ajoyib g‘or - bular hammasi tashqi va ichki kuchlar ta’sirida yuzaga kelgan bo‘lib, barchasi turizm ob’ektlari hisoblanadi. Jizzax viloyatida foydali qazilma boyliklardan asosan oltin, kumush, volfram, qo‘rg‘oshin, rux, temir, marmar, bazalt va granit ohaklar ko‘p tarqalgan. Bu bilan birga viloyat hududida tog‘ va tog‘oldi hududlarida tog‘ kon sanoati ham rivojlangan. Foydali qazilma boyliklarni olishda ham antropogen omil ham muhim ro‘l o‘ynaydi.

XULOSA

Xozirgi kunda tabiatga eng katta ta'sir qiladigan omil antropagen omil hisoblanadi. Antropagen omillar ta'sirida ko'plab lokal doiradagi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, dehqonchilikda foydalaniladigan yerlar juda katta zarar ko'radi, uning o'simligi va tuprog'iga zarar yetadi. Shunday bo'lganligi uchun ham aholi iste'mol qiladigan ekinlari ham unumsiz va barakasiz bo'ladi. Agar shunday bo'lsa oziq-ovqat yetishmasligi va taqchilligi jadallahadi. Bu o'z navbatida mahalliy muammolar kelib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alibekov L.A. Zomin milliy bog'i va geoekologik muammolar yechimining geografik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013 y.
2. Фозиева М.Т. “Зомин” туристик-рекреацион зонаси ва уни ривожлантириш йўллари. O'zbekistonda geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish yo'llari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Jizzax. 2023-yil 4-noyabr
3. G'o'dalov M.R., Muxamedov O.L. Tabiatni muhofaza qilish: muammo va yechimlar. Guliston 2021 y
4. G'o'dalov M., G'oziyeva M. Ways to develop modern ecotourism in the Zamin basin. International engineering journal for research & development. Vol – 5, Issue – 7, 2020 India.
5. Зомин миллий табиат бўғининг “Табиат йилномаси” маълумотлари. Зомин-2022 й.